

№	MUNDARIJA	Page
1.	YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHNING MOLIYAVIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	ПРИМЕНЕНИЕ МСФО 17 В СТРАХОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ И ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. АНАЛИЗ РЕЗЕРВОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ БАРЬЕРОВ <i>Баратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	O'ZBEKISTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	O'ZBEKISTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	ПЕРСПЕКТИВЫ И БАРЬЕРЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ (ТАКАФУЛ) В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Мурадова Дилдора Абдусалимовна</i>	26
10.	YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV <i>Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xolbaev Azamat Yuldashovich</i>	34
12.	ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАХОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ <i>Умарова Хуриида Олимжоновна</i>	38
13.	OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH <i>Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR

Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti PhD, dotsent v.v.b.
mirzamahmudovamadina@gmail.com

Akbaraliyeva Diyora

O'zMU talabasi
akbaraliyevadiyora161@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/294

Annotatsiya: Maqolada sug'urta tizimi uning rivojlanish tarixi o'rganilgan. Sug'urta tizimidagi xavflar, statistik tadqiq etishda muhim tahlil etilgan. O'zbekistondagi sug'urta tizimining holati, statistik ko'rsatkichlari hududlar kesimida taqqoslangan. Respublikadagi sug'urta tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi risklar aniqlanib xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta riski, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, sug'urta majburiyati, majburiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta hayot sug'urtasi.

Abstract: The article examines the insurance system and its development history. The risks in the insurance system that are important for statistical research have been analyzed. The state of the insurance system in Uzbekistan and statistical indicators were compared by region. The risks affecting the development of the insurance system in the republic have been identified.

Keywords: insurance risk, insurance premium, insurance payment, insurance obligation, compulsory insurance, voluntary life insurance.

Абстрактный: В статье исследуется система страхования и история её развития. Проанализированы риски в системе страхования, важные для статистического исследования. Состояние системы страхования в Узбекистане, статистические показатели сравнивались в разрезе регионов. Выявлены риски, влияющие на развитие страховой системы в республике.

Ключевые слова: страховой риск, страховая премия, страховая выплата, страховое обязательство, обязательное страхование, добровольное страхование жизни.

Kirish (Введение/ Introduction)

Bugungi global va milliy iqtisodiyot sharoitida sug'urta tizimi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi vosita, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy himoya va risklarni boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, aholi farovonligining oshishi va xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirishda sug'urta tizimining rivoji muhim ahamiyatga ega. Respublika aholisining atiga – 7 foizi sug'urtaning biror turidan foydalanmoqda. Sug'urta kompaniyalarining aktivi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 1 foizini tashkil etadi, ushbu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda 5–10 foizni tashkil etadi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda sug'urta tizimini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Sug'urta tizimining rivojlanish tarixi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qadim zamonlardan to hozirgi kungacha turli bosqichlardan o'tgan. Sug'urtaning dastlabki ko'rinishi Bobil podshosi Hammurabi qonunlarida ko'rish mumkin, unda tijorat risklarini taqsimlashga oid tamoyillar mavjud edi. Masalan, yuk tashuvchi karvonlar yo'lda zarar ko'rsa, zarar birgalikda qoplanishi kerak edi. Yana Qadimgi Misr va Xitoyda dehqonchilik va daryolar toshqinidan zarar ko'rganlar uchun jamoaviy yordam tizimlari joriy etilgan.

O'rta asrlarda Yevropada hunarmandlar va savdogarlar o'zaro yordam jamiyatlarini tuzib, kasb bilan bog'liq xavflarni yengillashtirishga harakat qilganlar. XIV asrda Italiya (Genuya, Venetsiya) va Angliyada savdo kemalari uchun birinchi yozma sug'urta shartnomalari tuzila boshlandi. Bu dengiz sug'urtasining shakllanishining dastlabki bosqichi bo'lgan.

XVII-XIX asrlarda dastlabki tashkil etilgan sug'urta uyushmalaridan biri bo'lib, ayniqsa dengiz sug'urtasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. 1666-yilgi Londondagi 13000 dan ortiq binolarni vayron qilgan katta

yong'indan so'ng yong'in sug'urtasi joriy etildi. Angliyada birinchi sug'urta kompaniyasi Nikolas Barbon tomonidan 1680 yilda tashkil etilgan. Kompaniya "The fire office" deb nomlangan va yong'in sug'urtasi bilan shug'ullangan. [2],[8]

Germaniyada O.Bismark tomonidan ishlab chiqilgan, ijtimoiy himoya qilish tizimini tashkil etish haqidagi qonunning qabul qilinishi jahondagi boshqa mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida milliy qonunlarni ishlab chiqishga jiddiy turtki bo'ldi. Hayot, sog'liq, mulk, transport, biznes risklari, javobgarlik kabi ko'plab yo'nalishlar bo'yicha sug'urtaning murakkab turlari paydo bo'ldi. Bugungi kunda sug'urta xizmatlari raqamlashtirilgan, sun'iy intellekt, big data va blokcheyn texnologiyalari orqali xizmat ko'rsatish soddalashtirilgan.[4]

Tadqiqot usullari (Методы /Methods).

Maqolada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlash va umumlashtirish, statistik kuzatish, nisbiy miqdorlar tahlili, ekspert baholash, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/ Analysis and results).

Sug'urta sohasida xavfi (yo'qotishlar), sug'urta hodisalari soni va zarar miqdorini statistik tadqiq etishda quyidagi muhim omillar hisobga olinadi:

1. Sug'urta obyektlarining xususiyatlari – sug'urta qilingan mol-mulk, shaxs yoki mas'uliyatning sug'urta munosabatlaridagi asosiy xususiyatlari tushuniladi. Bunda sug'urta qiymati muhim hisoblanib, obyektning bozordagi yoki kelishilgan bahosi va sug'urta summasi shu qiymat asosida belgilanishini ko'rish mumkin.

2. Xatarlar tabiati va klassifikatsiyasi – turli tabiiy ofatlar, yong'in, avtohalokat, kasallik va boshqa xavflarning tabiati, ularning ehtimolligi va xavf darajasi tahlil qilinadi.

Xatar — bu kelajakda sug'urta ob'yektiga zarar yetkazish ehtimoliga ega bo'lgan noaniq (tayinsiz) holatdir. Sug'urta faqat noaniq va o'zga ta'siridan tashqari bo'lgan xatarlarni qabul qiladi. Aniq yoki maxsus tashkil etilgan xatarlar sug'urtaga kirmaydi.



1-rasm. Xatarlarning asosiy klassifikatsiyasi¹ [7].

3. Sug'urta hodisalari soni va ularning tarqalishi — belgilangan davr mobaynida yuz bergan sug'urta hodisalari soni va ularning qanday xilda va qaysi guruhlarda tarqalishi alohida o'rganiladi.

4. Sug'urta hodisasi — bu sug'urta shartnomasiga muvofiq, sug'urta kompaniyasi tomonidan to'lov majburiyatini keltirib chiqaradigan voqea. Masalan: avtohalokat, yong'in, kasallik, vafot va boshqalar. Sug'urta hodisalari soni — belgilangan vaqt davrida (odatda 1 yil) yuz bergan va sug'urta kompaniyasi qayd etgan hodisalarning umumiy sonini anglatadi. Sug'urta hodisalari soni tahlili orqali sug'urta portfelining xatar darajasi va sug'urta muvozanatini baholash mumkin.

5. Talofatlar miqdori (zarar miqdori) — har bir sug'urta hodisasi natijasida kelib chiqqan moddiy va moliyaviy zarar miqdori, uning o'rtacha qiymati va tarqalishi tahlil qilinadi. Talofat miqdori — sug'urta hodisasi sodir bo'lganida sug'urta ob'yektiga yetkazilgan moddiy yoki moliyaviy zararining qiymatidir. Bu summa sug'urta kompaniyasi to'lash majburiyatini oladigan asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Talofatlar miqdori fbsolyut va nisbiy o'lchanadi:

Absolyut ko'rinishda: pul bilan ifodalangan zarar (masalan, 100 mln so'mlik zarar).

Nisbiy ko'rinishda: zararining sug'urta summasiga nisbati (masalan, sug'urta summasiga nisbatan 20 foiz zarar).



2-rasm. Sug'urtada tarqalish modellari² [1]

6. Sug'urta polislarining sharoiti va shartlari — sug'urta polisida belgilangan shartlar (franshiza, limitlar, qoplash foizi va boshqalar) zararining qoplanish tartibi va miqdoriga ta'sir qiladi.


Sug'urta polisi — sug'urta kompaniyasi va sug'urta qiluvchi o'rtasida tuzilgan shartnomani rasmiylashtiradigan rasmiy hujjatdir. U sug'urta shartlarini, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi va to'lovni talab qilishda asosiy dalil hisoblanadi.

7. Mijozlar segmentatsiyasi — sug'urta qiluvchilarning yoshi, jinsi, faoliyat turi, geografik joylashuvi va boshqa demografik belgilar ham natijalarga ta'sir qiladi. Mijozlar segmentatsiyasi — sug'urta kompaniyalari mijozlarni turli guruhlariga ajratish jarayoni bo'lib, har bir guruhga muvofiq xizmatlar va mahsulotlar taklif etishni osonlashtiradi. Bu jarayon orqali mijozlar ehtiyojlari yaxshiroq aniqlanadi va ular uchun individual yondoshuv ishlab chiqiladi. Misol uchun: avtomobil sug'urtasida yosh haydovchilar uchun alohida tarif, tajribali haydovchilar uchun boshqacha ta'rif asosida xizmatlar taklif etiladi. Tibbiy sug'urtada oilali va bolali mijozlar uchun kengaytirilgan paketlar belgilanadi. Kasbiy mas'uliyat sug'urtasida turli kasb egalari uchun turlisa, yuristlar, vrachlar, arxitektoralar uchun maxsus sug'urta paketlari mavjud.

8. Makroiqtisodiy va tashqi omillar — inflyatsiya darajasi, iqtisodiy inqirozlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar va boshqa omillar sug'urta sohasidagi zarar miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Makroiqtisodiy omillar — butun iqtisodiyot darajasidagi umumiy holat va tendensiyalardir (masalan, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, ishsizlik). Tashqi omillar — iqtisodiyotdan tashqaridagi, lekin sug'urta faoliyatiga ta'sir

qiladigan omillardir (masalan, tabiiy ofatlar, siyosiy vaziyat, xalqaro bozorlardagi o'zgarishlar).

Agar mamlakatda inflyatsiya yuqori bo'lsa, qurilish xarajatlari ortib, binolarni sug'urta qilish summaları oshadi. Tabiiy ofatlar ko'payotgan mintaqalarda mulk sug'urtasi shartlari qattiqlashtiriladi va mukofotlar oshadi. Siyosiy beqarorlik yuz bersa, sug'urta kompaniyalari xavf darajasi yuqori hududlarda faoliyatni cheklashi mumkin.



3-rasm. Sug'urta sohasiga ta'sir qiluvchi asosiy makroiqtisodiy omillar³

9. Sug'urta portfelining tuzilishi — sug'urta kompaniyasining — portfelidagi riziklarning diversifikatsiya darajasi ham natijalarga ta'sir qiladi. Sug'urta portfel — bu sug'urta kompaniyasining barcha tuzilgan shartnomalari (polislari) va ular bilan bog'liq xavflar yig'indisidir. Ya'ni, sug'urta portfel — kompaniya qaysi sug'urta turlarini va qancha miqdorda sug'urta qilganini, xavflar qay tarzda taqsimlanganini aks ettiradi. [3]

10. Texnik va aktuar hisob-kitob metodlari — sug'urta hodisalari va zararlarni baholashda qo'llaniladigan statistik va aktuar modellar (masalan, Puasson taqsimoti, eksponensial taqsimot va h.k.) tadqiqot samaradorligini belgilaydi. Texnik hisob-kitoblar — sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, tariflarni belgilash, xavflarni baholash va sug'urta shartnomalarini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan hisob-kitoblardir. Bu hisob-kitoblar, asosan, sug'urta polislarining texnik jihatlarini, shuningdek, ularning bozor talablariga muvofiqligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

10. Aktuar hisob-kitoblari — bu sug'urta va qarz sohasidagi mutaxassislar (aktuarlar) tomonidan amalga oshiriladigan texnik tahlil va prognozlash metodlaridir. Aktuarlar sug'urta xatarlarini baholash, tariflar belgilash, sug'urta polislarining daromadligini prognoz qilish, shuningdek, sug'urta kompaniyasining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan usullar. Misol uchun, hayot sug'urtasida aktuarlar odamlarning o'limi ehtimoliga asosanib, yosh, jins, sog'liq holatini hisobga olib, sug'urta to'lovlarini belgilaydi; avtomobil sug'urtasida aktuarlar yo'l-harakat xavflarini tahlil qilish orqali vozillarning avariya uchrash ehtimolini hisoblaydi va buga ko'ra tarif belgilaydi; mulk sug'urtasida aktuarlar tabiiy ofatlardan (zilzila, tofan) kelib chiqadigan xatarlarni baholash uchun statistik modellar ishlab chiqadi.

Yuqoridagi xatarlarni inobatga olgan holda mamlakatda sug'urta tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda Sug'urta xizmatlari davlat tomonidan markazlashgan tarzda boshqarilgan. Mustaqillikdan so'ng sug'urta bozorining liberallashtuvi boshlandi, xususi kompaniyalar tashkil topdi. Sug'urta xizmatlarini tartibga soluvchi alohida qonunlar, agentliklar va raqamli xizmatlar mavjud bo'lib, majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari rivojlanmoqda.

2024-yilda O'zbekistonda sug'urta tashkilotlar soni 28 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 31 tani tashkil etgan edi. Ular tarkibida umumiy sug'urta kompaniyalari soni 28 ta (2023 yilda 31 ta)ni, hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar soni 5 ta (2023 yilda 7 ta)ni tashkil etgan.

2023-yilda sug'urta mukofoti 8,1 trln so'mni, 2024 yilda 9,8 trln so'mni tashkil etgan. Ular tarkibida eng yuqori ko'rsatkich ixtiyoriy sug'urta turiga to'g'ri keladi. Sug'urta to'lovi bo'yicha ko'rsatkichlar o'rganilganida, 2023-yilda 2 trln so'mni, 2024-yilda 2,2 trln so'mni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Sug'urta to'lovi tarkibida hayot sug'urtasi 2023-yilda 22 foizdan 2024 yilda 6 foizga tushganligini kshirish mumkin(4-rasm).



4-rasm. 2023-2024 yillarda sug'urta mukofoti va sug'urta to'lovi tarkibi (foizda) [5], [6]

2022-2024- yillar uchun sug'urta to'lovi bo'yicha statistik ma'lumotlar kuzatilganida sug'urta kompaniyalari tosonidan kelishilgan shartnoma asosida o'sish tendentsiyasiga ega zarami qoplash Samarkand (2024-yilda 67804 mln so'm), Qashqadaryo viloyatlari (2024-yilda 33846 mln so'm) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (2024-yilda 70701 mln so'm) hissasiga to'g'ri kelganligi aniqlandi. Sug'urta qoplamalarining eng past ko'rsatkichlari, Andijon, Namangan, Navoiy viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Respublikada eng yuqori sug'urta to'lovlari 2022-2024-yillarda Toshkent shahrida ekanligi aniqlandi. (1-jadval)

1-jadval. 2022-2024 yillar hududlar kesimida sug'urta to'lovi (mln so'm) [5], [6]

	2022	2023	2024	2024 yilda 2022 yilga nisbatan o'zgarish, %
Qoraqalpog'iston Res	62047	41662	70701	13,9
Andijon	84852	32648	18662	-78,0
Buxoro	45823	35783	34029	-25,7
Jizzax	42267	26671	41856	-1,0
Qashqadaryo	27231	23988	33846	24,3
Navoiy	76040	56831	36030	-52,6
Namangan	90095	43542	37492	-58,4
Samarqand	43542	34835	67804	55,7
Surxondaryo	25207	26352	19700	-21,8
Sirdaryo	27061	33077	23789	-12,1
Toshkent	96018	81776	83251	-13,3
Farg'ona	73115	51714	50716	-30,6
Xorazm	39482	41038	30043	-23,9
Toshkent sh.	1864147	1447367	1656618	-11,1

2-jadval ma'lumotlari sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta kompaniyasiga to'lanadigan pul to'lovi (sug'urta mukofoti)ning 2024-yilda 2022-yilga nisbatan oshish tendentsiyasiga ega hududlar Jizzax viloyati (87,8 foiz), Toshkent shaxri (76,5 foiz), Surxodaryo viloyati (59,5 foiz) ekanligini ko'rsatadi. 2024 yilda 2022 yilga nisbatan kam sug'urta mukofotlari qayt etgan hududlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (-37,5 foiz), Namangan viloyati (-14,8 foiz), Navoiy viloyati (-12,8 foiz) ekanligi aniqlandi.

2-jadval. 2022-2024 yillar hududlar kesimida sug'urta mukofoti (mln so'm) [5], [6]

	2022	2023	2024	2024 yilda 2022 yilga nisbatan o'zgarish, %
Qoraqalpog'iston Res	262527	155545	164045	-37,5
Andijon	165349	163789	176401	6,7
Buxoro	166349	209094	188831	13,5
Jizzax	78918	103882	148214	87,8
Qashqadaryo	164516	212442	216283	31,5
Navoiy	139046	128741	121259	-12,8
Namangan	168627	170560	143748	-14,8
Samarqand	144892	185496	225149	55,4
Surxondaryo	86017	138455	137231	59,5
Sirdaryo	56888	71948	79889	40,4
Toshkent	200077	190741	209845	4,9
Farg'ona	198143	249972	257766	30,1
Xorazm	154184	192475	206848	34,2
Toshkent sh.	4245555	5886586	7494598	76,5

2022-2024 yillar ham sug'urta majburiyatida turli dinamik ko'rsatkichlar ko'zga tashlanadi. Michol uchun, 2024- yilda 2022-yilga nisbatan Farg'ona viloyatida sug'urta majburiyatlar keskin 154,1 foizga oshgan. Ushbu davrda Qoraqalpog'iston Respublikasi (-36,9 foiz), Qashqadaryo viloyati (-21,1 foiz), Toshkent viloyati (-10,2 foiz) sug'urta majburiyati pasayish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. (3-jadval)

3-jadval. 2022-2024 yillar hududlar kesimida sug'urta majburiyati (mln so'm) [5], [6]

	2022	2023	2024	2024 yilda 2022 yilga nisbatan o'zgarish, %
Qoraqalpog'iston Res	53738,9	31377,9	33926,4	-36,9
Andijon	46790,4	52337,9	56840,6	21,5
Buxoro	465790,4	49136,3	43473,8	-6,7
Jizzax	25809,5	41895,5	47917,9	85,7
Qashqadaryo	68353,4	53157,9	53954,6	-21,1
Navoiy	33705,6	37381,6	42878,2	27,2
Namangan	39472,4	44468,2	44166,0	11,9
Samarqand	58797,6	68627,3	70589,1	20,1
Surxondaryo	33767,6	39620,2	36821,0	9,0
Sirdaryo	18108,2	18763,7	20028,9	10,6
Toshkent	71491,3	70607,4	64197,0	-10,2
Farg'ona	60526,0	72124,2	153785,1	154,1
Xorazm	44895,9	45517,8	43754,6	-2,5
Toshkent sh.	1501004,1	1716542,6	1989740,8	32,6

O'zbekiston hududlari ichida Toshkent shahri har bir sug'urta ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natijalarga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. 2024 yilda 2022 yilga nisbatan shartnomalar soni 39,56 foizga, sug'urta majburiyatlar 32,6 fozga oshgan. Sug'urta mukofoti o'sish tendentsiyasiga, sug'urta to'lovi pasayish tendentsiyasiga ega. Ushbu natijalardan kelib chiqib aytish mumkin, poxtast sug'urta bozori rivojlanishida yetakchilikni egallagan hudud hisoblanadi. (4-rasm)



5-rasm. 2022-2024 yillarda Toshkent shahri bo'yicha sug'urta mukofoti va sug'urta to'lovi ko'rsatkichlari (mln so'm) [5], [6]

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Fikrimizcha, O'zbekistonda hayot sug'urta kompaniyalari faoliyatidagi asosiy risklar quyidagilardan iborat:

Birinchisi, jamiyatning savodxonlik darajasi – aholi sug'urta xizmatlarini tushunish va ularni to'g'ri tanlashda yetarli bilimga ega emas. Bu sug'urta kompaniyalariga mijozlar tomonidan ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekistonda sug'urta sohasini tartibga soluvchi qonunlar va normativ hujjatlar tez-tez o'zgarib turadi. Bu esa sug'urta kompaniyalarining faoliyatini qayta tiklash va yangi talablarga muvofiq lashtirishni talab qiladi. Shuningdek, qonunlar va sug'urta shartnomalari orasidagi nomutanosibliklar yoki tushunmovchiliklar haqidagi huquqiy masalalar mavjud.

Uchinchidan, sug'urta kompaniyalari xom ashyo va xizmatlar narxlarining oshishi, shuningdek, kelajakdagi to'lovlarni hisobga olishda inflyatsiyaning ta'siriga duch kelishadi. Bu, sug'urta polislarining nominal yoki haqiqiy qiymatini buzishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiy pasayish davrida aholi sug'urta badallarini to'lashdan o'zini olib qochishi yoki kompaniyalar sug'urtalarni kamaytirishi mumkin. Bu, o'z navbatida, sug'urta kompaniyasining daromadini kamayishiga olib keladi. Banklardagi mijozlar yoki investorlar tomonidan sug'urta polislar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik yoki qarzdorlik darajasining o'sishiga olib keladi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda yuqori moliyaviy risklar mavjud. Sug'urta kompaniyalari o'z aktivlari va passivlarini to'g'ri tarzda boshqarishlari zarur. Agar kompaniyalarining aktivlari passivlarini qoplashga yetarli bo'lmasa, bu moliyaviy muammolarga olib kelishi mumkin. Va albatta, Sug'urta kompaniyalari o'z mablag'larini investisiya qilish orqali ko'paytirishga harakat qilishadi. Bu investitsiyalarning bozorlarning o'zgarishlari, foiz stavkalari yoki valyutalarning savdo kursidagi o'zgarishlardan kelib chiqadigan xatarlarga bog'liq bo'ladi.

Beshinchidan, tabiiy ofatlar va ekologik risklar. Tabiiy ofatlar: zilzila, tofan, yomg'irlar va boshqa tabiiy ofatlar insonlar va ularning mulklariga katta zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, bu holatlarda sug'urta kompaniyalari katta to'lovlar amalga oshirilishini talab etadi.

So'nggi oltinchi risk bu texnologiyalarga bog'liq risklar hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari ko'pincha mijozlar ma'lumotlarini saqlash va internet orqali xizmat ko'rsatishadi. Kiber hujumlar natijasida

ma'lumotlarning yo'qolishi yoki noqonuniy hakerlik xarakati faoliyatning risklilik darajasini oshiradi.

Respublikada sug'urta bozorini yana rivojlantirishda yuqorida keltirilgan risklar xavfini kamaytirishni talab etadi. Sug'urta tizimini

rivojlantirish orqali davlat byudjeti yuki kamayadi, ijtimoiy sohalar o'zini o'zi moliyalashtirish tizimi rivojlanadi, aholi farovonligi oshishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Charpentier, A. (2014). Computational Actuarial Science with R. CRC Press.
2. Harold D. Skipper. An Overview of the Insurance Industry and Its Regulation. 2009.
https://www.researchgate.net/publication/228341618_An_Overview_of_the_Insurance_Industry_and_Its_Regulation
3. Katherine Baicker, William Hatfield Dow. Risk Selection and Risk Adjustment: Improving Insurance in the Individual and Small Group Markets. 2009.
https://www.researchgate.net/publication/26754939_Risk_Selection_and_Risk_Adjustment_Improving_Insurance_in_the_Individual_and_Small_Group_Markets
4. Mirzamahmudova M.O. Davlat pensiya ta'minoti va pensiyani hisoblash [Matn]: O'quv qo'llanma. Toshkent. Bookmany print, 2024 – 304 b.
5. National agency of perspective projects. Показатели страхового рынка Республики Узбекистан по итогам 2023 года.
6. National agency of perspective projects. Показатели страхового рынка Республики Узбекистан по итогам 2024 года.
7. Rejda, G. E., & McNamara, M. J. (2017). Principles of Risk Management and Insurance. Pearson.
8. Rob Merkin, Jenny Steele. Insurance and the Law of Obligations. 2013. <https://academic.oup.com/book/8426>.